

**BOSHLANG'ICH TA'LIM FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA 4K MODELINING  
O'RNI**

*Eryigitova Maxfirat Mahmudjon qizi*

*Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi boshlang'ich ta'lim fani metodisti*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda 4K modelining o'rni va xalqaro modeli bo'yicha kristizim ko'nikmasini shakllantirish masalasi tahlil qilingan.

**Kali tso'zlar:** 4Kmodeli, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, kristizim, ko'nikma.

Jahon ta'limida yangicha yondashuvlar, o'zgarishlar va takomillashtirish jarayoni kechmoqda. Bunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Hamma uchun ta'lim" g'oyasi asosida jahonda yagonalashgan ta'lim jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu borada YUNESKO tashkilotining xalqaro ta'lim dasturlari va qoidalariga qat'iy amal qilish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli jahonda ta'lim hamkorligi bo'yicha modellar tarkib topmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich ta'limning ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidlash lozim. Chunki texnologik taraqqiyot davrida boshlang'ich ta'lim barchaning savodxon bo'lishini ta'minlaydi. Bunda shaxsning alifboni bilishi, o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalaridan xabardor bo'lishi zaruriyat hisoblanadi. Bular savodxonlikning asosidir. Dunyo mamlakatlari ta'lim jarayonida bugungi kun talablari asosida ta'lim va tarbiyani amalga oshirish jarayoni kechmoqda bunda ayniqsa, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qabul qilingan. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limning yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Mazkur masalada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Bu borada dunyo mamlakatlari ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikning kuchayganligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar va takomillashtirilardan foydalanish vositasida mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini talab darajasida tarkib toptirish muhimdir.

Mamlakatimizda "O'zbekiston 2030" strategiyasi asosida boshlang'ich ta'limni sifatli rivojlantirishning muhim dasturlari amalga oshirilmoqa[4]. 2030 yilga qadar boshlang'ich ta'limda muhim o'zgarishlar va sifatli ko'rsatkichlarga erishish taqazo etiladi. Shu jihatdan Buyuk Britaniyaning Kembrij Universiteti pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan va dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida e'tirof etilgan 4K modeli bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirish, mexanizmlarini takomillashtirish muammosini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu

modulning asosini kollaboratsiya (o'quvchilarni guruh bo'lib ishlash) kommunikatsiya (o'quvchilarning layoqatini rivojlantirish) kreativlik (o'quvchilarning yangicha fikrlash) va kristizim (o'quvchilarning tanqidiy munosabati) ko'nikmalarini shakllantirish tashkil qiladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida 2023-2024 o'quv yili bazaviy o'quv rejada ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovasion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kollaborasiya – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Shunday qilib, mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish boshlang'ich ta'lim sifatiga erishishning zamonaviy va innovatsion istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Международные документы.- Москва, 2015
2. Документы Организация Объединённых Наций - Москва 2017
3. O'zbekiston-2030 strategiyasi //www.ziyonet.uz.
4. Sayliyeva M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K xalqaro modeli bo'yicha kretisizm ko'nikmasini shakllantirish // "Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami // -Toshkent, 2024, 24 fevral. 1-qism. - B. 145-147.